Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil uchun Andijon viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 107 717,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024-yil bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024-yil narxlariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo‘shgan hissasi 5,8 % ga yetdi.

## 2025-yil uchun Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2024-2025- yillar uchun Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2024-yil*** | ***2025-yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **93 026,3** | **107 717,6** | **106,8** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 89 518,6 | 105 364,5 | 106,6 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3 507,7 | 2 353,1 | 111,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **89 518,6** | **105 364,5** | **106,6** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **27 473,2** | **30 535,0** | **104,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **30 336,5** | **37 062,3** | **108,3** |
| sanoat | 24 975,7 | 30 726,7 | 107,2 |
| qurilish | 5 360,8 | 6 335,6 | 113,8 |
| **xizmatlar** | **31 708,9** | **37 767,2** | **106,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 11 305,2 | 13 388,4 | 109,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4 843,0 | 6 144,7 | 112,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 15 560,7 | 18 234,1 | 103,4 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 30 852,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

## 2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
*(ming so‘mda)*

27 139,6 — 2024- yil

30 852,1 — 2025- yil

## 2024-2025- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
*(o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)*

2024- yil — 104,4 %

2025- yil — 104,8 %

## 2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2024- yil* | *2025- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,2 | 97,8 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,8 | 2,2 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **30,7** | **29,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **33,9** | **35,2** |
| sanoat | 27,9 | 29,2 |
| qurilish | 6,0 | 6,0 |
| **xizmatlar** | **35,4** | **35,8** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 12,6 | 12,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,4 | 5,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 17,4 | 17,3 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2025-yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 29,0 % ni, sanoat tarmog‘i 29,2 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 35,8 % ni tashkil qildi.

## 2024-2025- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2024- yil**




**2025- yil**




Yalpi qo‘shilgan qiymat     Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 1,4 f.p. (2024-yilda – 1,1 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,9 f.p., (2024-yilda – 2,0 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,8 f.p. (2024-yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2024-yilda – 2,8 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2024-yilda – 0,3 f.p.)ga ko‘paydai.

## 2025- yil uchun YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



2025-yil uchun YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 29,0 %), sanoatda – 107,2 % (29,2 %), qurilishda – 113,8 % (6,0 %), xizmatlar sohasida – 106,7 % ni (35,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,0 % (12,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,2 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (17,3 %) iborat bo‘ldi.

## 2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilga nisbatan % da)*

| 2024-y. | | 2025-y. |
|---|---|---|
| 6,6 % | YAHM | 6,8 % |
| 3,4% | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,6 % |
| 7,3 % | Sanoat | 7, 2% |
| 7,7 % | Qurilish | 13,8 % |
| 8,6 % | Xizmatlar | 6,7 % |

2025-yilda YAHM deflyatori indeksi 2024-yildagi narxlarga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori koʻrsatkichlari sanoatda – 114,8 % va xizmatlarda – 111,6 % qayd etildi.

## 2024-2025- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(oʻtgan yilga nisbatan % da)*

| | 2024- y. | 2025- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 108,7 % | 108,4 % |
| Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 104,4 % | 106,3 % |
| Sanoat | 107,3 % | 114,8 % |
| Qurilish | 108,0 % | 103,9 % |
| Xizmatlar | 112,2 % | 111,6 % |

2025-yil uchun kichik tadbirkorlik 73 832,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024-yilda – 62 793,6 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 70,1 % ni (2024-yilda – 70,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi.

**2024-2025- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan % da*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2024- yil | 62 793,6 | 70,1 % |
| 2025- yil | 73 832,0 | 70,1 % |

